



Zamira **ERMATOVA**,

Jizzax viloyati. Paxtakor tumani 1-Politexnikum o'qituvchisi

E-mail: zamiraermatova104@gmail.com

TIU SF dotsenti U. Xudayarov taqrizi asosida

## INSON ONGIDA QO'RQUVNI PAYDO BO'LISHNING IJTIMOY-FALSAFIY OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada qo'rquv fenomenining ijtimoiy-falsafiy mohiyati Arastu, Forobiy qarashlari, zamonaviy yondashuvlar, shuningdek tarixiy davrlarda qo'rq uvlarning transformatsiyasi - ibtidoiy davr, qadimgi sivilizatsiyalar, o'rta asrlar, yangi davr, XX asr, XXI asr. Totalitar jamiyat va siyosiy qo'rquv repressiya - tarixiy travma, konformizm va senzura. Shuningdek, axborot bosimi va zamonaviy qo'rquvlar haqidagi fikirlar internet, ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar ongidagi xavotir va bohsqalar. Qo'rquvning ijobiy va salbiy funksiyalari turli fazalardan turib olimlarning fikrlari asosida yoritishga harakat qilingan. Maqola xulosa, taqriz va foydalanilgan adabiyotlar bilan yakunlanadi.

**Kalit so'zlar:** Qo'rquv, tarixiy xotira, ijtimoiy ong, totalitarizm, globallashuv, yoshlar.

## СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ СТРАХА

Аннотация

В статье раскрывается социально-философская сущность феномена страха на основе взглядов Аристотеля и аль-Фараби, а также современных теоретических подходов. Особое внимание уделяется трансформации страхов в различные исторические эпохи: первобытное общество, древние цивилизации, Средневековье, Новое время, XX и XXI века. Рассматриваются феномены тоталитарного общества и политического страха, репрессий как формы исторической травмы, а также проблемы конформизма и цензуры. В статье анализируется влияние информационного давления и современных страхов, связанных с интернетом и социальными сетями, на сознание молодежи, рост тревожности и неопределенности. Положительные и отрицательные функции страха раскрываются с опорой на научные взгляды различных ученых и в контексте разных исторических фаз.

**Ключевые слова:** Страх, социально-философский анализ, Аристотель, аль-Фараби, историческая трансформация, тоталитарное общество, политический страх, репрессии, историческая травма, конформизм, цензура, информационное давление, интернет, социальные сети, молодежная тревожность, функции страха.

## SOCIO-PHILOSOPHICAL FACTORS IN THE FORMATION OF FEAR

Annotation

The article examines the socio-philosophical essence of the phenomenon of fear based on the views of Aristotle and Al-Farabi, as well as modern theoretical approaches. Particular attention is paid to the transformation of fear across historical periods, including the primitive era, ancient civilizations, the Middle Ages, the modern era, the twentieth century, and the twenty-first century. The study also addresses fear in totalitarian societies, political fear, repression as a form of historical trauma, as well as issues of conformism and censorship. Furthermore, the article analyzes the impact of information pressure and contemporary fears associated with the Internet and social networks on youth consciousness, anxiety, and uncertainty. The positive and negative functions of fear are explored from various perspectives and historical phases based on the views of prominent scholars.

**Key words:** Fear, socio-philosophical analysis, Aristotle, Al-Farabi, historical transformation, totalitarian society, political fear, repression, historical trauma, conformism, censorship, information pressure, Internet, social networks, youth anxiety, functions of fear.

**Kirish.** Ilmiy yondashuvlardagi nazariyalarga ko'ra, "Qo'rquv" bu inson tafakkuri va ruhiyatining eng ibtidoiy va zamonlar osha inson bilan birga o'zgarimas universal holatda kelayotgan ijtimoiy psixologik hodisasidir[2]. U shaxsning faoliyatiga, xulq-atvori va tafakkuriga, qaror qabul qilish jarayonlariga va ijtimoiy munosabatlariga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Inson ongida qo'rquv faqat xavfga berilgan oddiy reaksiya emas, balki borliqni anglash, noma'lumlik bilan yuzlashish va o'z o'rnini belgilash jarayonining muhim tarkibiy qismi hamdir. Falsafa tarixida qo'rquvning mohiyati, uning paydo bo'lish omillari hamda inson va jamiyat rivojlanishiga ta'siri borasida ko'plab bahs munozaralar mavjud, ushbu mavzu atrofida asrlar mobaynida olimlar tomonidan ko'plab konsepsiyalar ishlab chiqilgan albatta.

Lekin, inson qo'rquvi faqatgina ruhiy holat emas ekan azizlar, balki u madaniy, ma'naviy, ijtimoiy va ma'rifiy jarayonlar bilan ham chambarchas bog'liq bo'lgan ijtimoiy-

falsafiy hodisadir. Shu boisdan kamina insoniyat tarqqiyotining dastlabki ibtidoiy davridan to hozirgi kungacha qo'rquvlarning bosib o'tgan taxminiy uzoq yo'lini juziy bir ro'yhatini tuzishga urinib ko'rdi.

1. Ibtidoiy davr (qadimgi jamiyat azolarining asosiy qo'rquvlari): o'limdan, yirtqich hayvonlardan, ochlikdan, tabiat hodisalaridan. (chaqmoq, zilzila, to'fon)[3]. Albatta, insonning asl fitratida tirik qolishga qattiq intilish bor. Olloh agar insonni qalbiga qo'rquvni solmaganida edi, insoniyat o'z hayotini, tanu-jonini, avlodini asrab qolish uchun bunchalik qayg'urmas edi. Shu bilan birga, ibtidoiy odamlarda tabiat hodisalarini tushunish uchun hali bilimlar yetarli emas edi, ijtimoiy hayot o'ta sodda (Ovchilik va terimchilik) tabiatga to'la bog'liq edi.

2. Qadimgi sivilizatsiyalar davri (Misr, Mesopotamiya, Yunon-Rim). Qo'rquvlar: Xudolarning g'azabidan, O'limdan keyingi hayotdan, sehr va jinlardan va koxinlardan. Diniy tasavvurlar shakllangan, Koxinlar tabiiy

ofatlarni ilohiy jazo deb talqin qilgan, ijtimoiy tabaqalanishning kuchaygan davri edi[4].

3. O'rta asrlar bu davrda diniy mafkuraning kuchayib ketishi natijasida Do'zaxdan, Gunoh va jazodan qo'rquv, hamda vabo, o'lat kabi turli kasalliklardan, Sehr-jodu, jodugarlardan adolatsiz soliqlar va shafqatsiz amaldorlar hamda urushlardan qo'rqishgan. Chunki bunga sabab diniy aqidaparastlik kuchli bo'lib, yagona, teng qonunlar mavjud bo'lmagan, (Qora vabo XIV asr) cherkor Inkvizitsiyasi, salb yurishlarining salbiy oqibatlari bunga yaqqol misol bo'ladi[5].

4. Yangi davr XVII–XIX asrlarga kelib kelib endi qo'rquvlarning turi va ko'lami ham kengaya boshladi. Yangi davr kishi ijtimoiy mavqeni yo'qotishdan, Qashshoqlikdan, Aqlni yo'qotishdan (jinnilik) qo'rqdi. Inson tafakkuri o'sdi, shaharlar rivojlandi, buyuk geografik kashfiyotlar sodir bo'ldi, sanoat inqilobi, mehnat uskunalar rivojlandi, kapitalistik munosabatlarga o'tila boshlandi va bu ijtimoiy raqobatning kuchayishiga olib keldi[6].

5. XX asr - urushlar davri, inson o'zi yaratilgan tizimlarning qurboniga aylanishi, ilm fan natijalari endi o'z yaratuvchisiga qarshi qo'yilishi bilan insoniyatning ongli tarixida aloxida ajralib turadi. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari, Yadro quroli (Xirosima, Nagosaki) Totalitar nazorat, Genotsid, Atom bombasi, Sovuq urush mafkuraviy qarama-qarshilik va xok. Bu davr shunisi bilan ayniqsa xarakterliki bir davrda yashab turib, lekin aynan bir millatga mansublik yokida bir mintaqa bir hudud kishilari turli xil qo'rquvlarni boshdan kechirishgan masalan irqchilik qurbonlari bo'lgan insonlar bilan bir qatorda sotqinlikdan, qatag'onlardan, xalq dushmani tamg'asidan, partiya a'zolidan o'chirilishdan, NKVD josuslaridan va boshqa etnopsixologik qo'rquvlar bilan axamiyatlidir[7].

6. XXI asr (hozirgi davr) o'zining zamonaviy qo'rquvlari bilan ahamiyatliki bular quyidagilardir: kelajakdan qo'rquv, ishsiz qolishdan, texnologiyalardan (suniy intellekt va robotlardan), axborot bosimi va yolg'on ma'lumot va moliyaviy firibgarlardan (xisob raqamlaridan pul yo'qotish), Pandemiyalardan (COVID-19), yolg'izlikdan va xok. Xush bular qanday boshlandi, avvalo o'zgarishlar juda tezlik bilan sodir bo'lyapti, atrofda axborot oqimi haddan ziyod ko'p, har tarafdin Globalizatsiya, eng asosiy omil albatta Internet va ijtimoiy tarmoqlardir.

Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, globallashuv sharoitida, axborot oqimining ortishi, raqobat muhiti kuchayishi va yangi ijtimoiy talablar shakllanishi natijasida insonlar ongida yangidan yangi turli qo'rquvlar paydo bo'lmoqda. Bu qo'rquvlar insonlarning o'z ruhiyatdan tashqari, umumjamiyatning barqaror rivojlanishiga ham o'z ta'sini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan qo'rquvni faqat psixologik nuqtayi nazardan emas, balki ijtimoiy-falsafiy, sosmadaniy jihatdan ham tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Falsafiy adabiyotlarda (Arastu, Forobiy, Gobs, Kirkegor, Xaydeger, J Piage,) «qo'rquv» ongli mavjudotning o'z vijdoni, borliq, xavf va noma'lumlik bilan munosabatini ifoda etuvchi universal kategoriya sifatida talqin qilinadi. Qadimiy falsafada Arastu o'zining "Ritorika", "Poetika", "Nikomax etikasi" va boshqa asrlarida turlicha talqin etadi, jumladan u qo'rquvni "yomonlikning yaqinlashganini his etish" deb ta'riflagan[8]. Unga ko'ra, qo'rquv insonning ehtimoliy xavfdan o'zini muhofaza qilish instinkti sifatida baholanadi.

Nazariy psixologiyadagi ta'riflarni umumlashtirish: "qo'rquv" qanaqa tur qanaqa ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar havo hatarga, xavotirga nisbatan, insonni sog'ligiga, va har qanday stressga nisbatan ichki emmotsional holati va reksiyasidir. Bu emmotsiya bilan bog'liq bo'lib, insonga avvalo stimol bo'ladi va inson unga nisbatan reksiya ko'rsatadi. Shunga doir qo'rquv bir necha turlarga bo'linadi. Birlamchi insonda paydo bo'ladigan qo'rquv bu jismoniy

qo'rquv bo'lib u tabiiy ravishda paydo bo'ladi. (tepalikdan tushib ketish va h..).

Madaniy qo'rquv urf-odat ananlardan chiqish, ajralib, yakkalanishdan xavotir. Diniy qo'rquv din talablarini bajara olmaslikdan, o'rganishdan, ichiga kirishdan. Ijtimoiy qo'rquv ommaga qarab turishdan, nutq so'zlashadan, Moliyaviy qo'rquv bu pul bilan bog'liq firibgarlarga aldanishdan, qarzga botishdan, tavakkaldan (risk). Shuningdek, bu tur qo'rquvlar ichida siyosiy qo'rquv ham bo'lib, bu siyosiy jarayonlarga aralashishdan, uni ichiga kirishdan, o'z fikrini bildirishdan, taqiqlar, taqiblar.. xavf xatar sezilganda ayniqsa qo'rquvlar butun boshli ommada, halqda paydo bo'ladi. Butun omma, xalq qo'rquvlarini paydo bo'lishini ko'rib chiqamiz, shakllanish omillariga qaraymiz yaqin davr Chor Rossiyasi va SSSR davridagi repressiya, qatag'onlar, juda ko'p bo'lganligi uchun xalq manaviyatida chuqur iz qoldirgan. Ziyolilarga, siyosiy tashabbusli qatlamga qaratilgan taqiblar bu demak ziyoli, siyosiy ongli bo'lish bu boshga balo ekan degan tushunchani keltirib chiqargan. 1985 yildagi Qayta qurish, O'zbeklar, paxta ishi bilan bog'liq qo'rquv va qamoqlar. OAVdagi senzuraning kuchidan insonlarda nimadir deb gapirib qo'ysam meni ham boshimga yomon kunlar tushadi deb ko'r va kar bo'lib umuman ko'nuvchan, sabrli bo'lishga majbur qilgan. Chunki, tarixiy ong va xotiradan hali yaqin o'tmishdagi mudhish xodisalar uzoqlashmagandi. Olimlarning takidlashicha insonda qo'rquv aslida psixik jaroxat, travmadan kelib chiqadi. Butun bir xalq siyosiy qo'rqov bo'lishi uchun u o'z utmishida ko'p marotaba real siyosiy tazyiq, taqiblar natijasida psixik travma, jarohat olgan bo'lishi kerak. Bu travmaning kuchli va chuqur bo'lishiga sabab u qo'rquvlar turg'un va surunkali bo'lgan bo'lishi kerak. Agar onda sonda va malum bir davrdagina sodir bo'lgan bo'lsa bu chuqur ildiz otmaydi va siyosiy qo'rquv shakllanmaydi. Biror bir xalqni qo'rqov deyshdan avval uni utmishiga, tarixiga bir nazar tashlash kerak. Chunki kuchli repressiyalar sodir bo'lgan har qanday jamiyat hoh u individualistik hoh u jamoaviy bo'lsin qo'rquv shakllanadi.

Chunki insonda psixik jaraohat tabiiy ravishda o'zini saqlashga qaratilgan reaksiyani keltirib chiqaradi. Demak, tarixiy omilda represiyadan tashqari totalitar tuzum bo'lgan bo'lishi kerak. Bu xalqni malum bir qolipga solib "Kim bizga qo'shilmasa bizga dushman, bizdan emas" qabliida. "Sovet kishisi" obrazni olsak u qolipdan chiqishi kerak bo'lmagan. OAV, media yani kino, teatr va talim orqali bu qolip obrazga tushmaslik, to'g'ri kelmaslik insonni o'z o'zidan norozilikka, bu obrazga qarshi bo'lish esa qator noqulayliklarga olib kelgan. Tanqid, jamoaviy muxokama, xayfsan, majlisda turg'azib hujum qilish, devoriy gazetalar, doskalarga rasmlarni qo'yish karikatura holatida. Mavjud tartiblarga qarshi chiqma deb aytish shart emas shu elementar ko'ringan ishlarni o'zi odamlarni qolipga soladi, o'zgacha fikrlashga, tanqidiy mushohada qilishga qo'ymaydi. Totalitar va Avtoritar tuzum insonlarni tanqidiy fikrlamasligi uchun talim, OAV va mediadagi senzura orqali siyosiy qo'rquvni shakllantiradi. Talimda darsliklar va metodlar ayniqsa ijtimoiy gumanitar fanlar mushohadaga tanqidiy, tahliliy fikr yuritishga qaratilmaydi.

Siyosiy qo'rquv haqida gapirish shart emas, insonni psixologiyasi shunaqaki agarda konformizm (ergashish)ga moyillik shakllantirilgan bo'lsa bo'ldi. Inson tanqidiy yondoshmaydi, balki istimolchi kabi hamma narsani qabul qilaveradi.

O'zbek faylasufi S. SHermuhamedovning ta'kidlashicha, jamiyatda barqaror ijtimoiy institutlar faoliyati izdan chiqqan sari yoshlar ongida qo'rquv va ishonchsizlik kuchayadi. Ayniqsa, ijtimoiy adolatga bo'lgan ishonchning pasayishi yoshlarni passivlikka, ba'zan esa radikal qarashlarga moyil qilib qo'yadi.

Tarixiy xotira tushunchasi yoshlar ongidagi qo'rquvlarning shakllanishini tushunishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Jamiyat boshidan kechirgan og'ir tarixiy sinovlar – urushlar, siyosiy qatag'onlar, ocharchilik va majburiy migratsiya jarayonlari jamoaviy ongda chuqur iz qoldiradi. Ushbu tarixiy tajribalar bevosita yoki bilvosita tarzda yoshlar ongiga o'tadi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan, bunday holat "ijtimoiy meros" sifatida talqin etiladi. O'zbek tarixchisi va faylasufi B. Valixo'jayev fikricha, tarixiy xotira sog'lom shakllanmagan jamiyatda qo'rquv avloddan-avlodga ong osti darajasida uzatiladi<sup>2</sup>. Natijada yoshlar aniq xavf bo'lmasa ham, ichki xavotir holatini boshdan kechiradi. Ayniqsa, yopiq jamiyatlarda uzoq davrlardan beri yashagan odamlarda hadiksirash, havotir va qo'rquvlar qon-qoniga singib ketgan bo'ladiki bu nafaqat o'sha xalqning etnopsixologiyasida balki halq og'zaki ijodida mahsuli bo'lmish maqollarda ham aks etadi. M: "Devorni ham qulog'i bor", "O'ynashmagin arbob bilan arbob urar har bob bilan", "Och qornim tinch qulog'im"[9] va hok.

Evrilish, Frans Kafkaning "Jazo koloniyasida", Markesning "Mustabitning paymonasi", Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar", romanida, Xurshid Dustmuhammadning "Oromkursi" qissasi, Dini Bussatining "Taqiq" hikoyasi, (1918), Ivan Buninning "La'natlangan kunlar" (1919), Vladimir Korolenkoning "Lunacharskiyga maktublar" (1920) asarlari o'z davr muammolarini mashhur yozuvchi Rahmon Qo'chqor tariflaganidek qo'shtirmoq ichidagi shaxslarning maqsad-muddolarini, kirdikorlarini badiiy adabiyot vositasida ars ettirgan[10].

Bugungi globallashuv sharoitida insonlar an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy turmush tarzi o'rtasida qolmoqda. Ushbu qarama-qarshilik ham qo'rquvlarning shakllanishida muhim ijtimoiy-falsafiy omil hisoblanadi. Bir tomondan, jamiyat insonlardan milliy qadriyatlarga sodiq bo'lishni talab qilsa, ikkinchi tomondan, global axborot makoni ularga mutlaqo boshqa ideallarni taklif etmoqda.

Qo'rquvning ijobiy tarafi sifatida olimlarning fikrlarini umumlashtirib: qonunlardan qo'rqish, bironi haqqidan qo'rqish, korrupsiyadan va boshqa sof yuksak tuyg'ular bilan bog'liq vatan rivojiga hissa qo'shuvchi qo'rquvlarning bo'lishi bu ezgulikka, taraqqiyotga xizmat qiladi va u bo'lishi shart va zarur. Albatta tanganing ikkinchi tarafi bo'lgani kabi qo'rquvning ham salbiy oqibatlari sifatida izlanuvchi olimlar quyidagi omillarni sanab o'tadilar, agar biror jamiyatda insonlar amaldorlardan qo'rqsa, davlat siyosatidan, taqiblardan, tazyiqlardan, kuch ishlatuvchi tashkilotlardan doimiy qo'rqib yashasa bu joyda na davlat na ijtimoiy munosabatlar rivojlanmaydi. Kuch ishlatish ustiga qurilgan bunday tuzumlarda bir tarafdan olib qarasa go'yoki jamiyat, odamlar oson boshqarilayotganga o'xshaydi. Shu o'rinda tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, yanada yaxshi tushunamiz

masalan qullik, quldorlik tizimi nima uchun bekor bo'ldi? Chunki, ongli odamlar tushunib yetdiki bironi qo'rqitib, taqib qilib, tazyiq o'tkazib yashagandan ko'ra, u bilan kelishib hamkor, hamfikir bo'lib yashash, ishlash samarali. Bugungi dunyodagi demokratik hamjamiyat xalqni qo'rquvda ushlagandan ko'ra, ularni ishonchini, qo'llab quvvatlovini olib kelishgan holda siyosat va davlat boshqaruvining ustqurmalarini qurishyapti. Shu nuqtayi nazardan endi barcha ovozlari uchirilgan jamiyatlarda esa insonlar o'z fikrlarini, tashabbuslarini bildira olmay norozi kayfiyatda yashaydilar, demak o'z o'zidan davlat ham o'z fuqarolarining qo'llab quvvatlovini, legitimligini ola olmasdan qiynalib, zo'riqib boshqaradi.

Zero, feodalcha, quldorlarcha qilingan barcha munosabatlarning oqibati tanazulga yuz tutgan. Bu kecha yoki bugun paydo bo'lgan yangi bir falsafa emas balki insoniyat tarixining haqiqatidir. Ta'lim tizimi yoshlar ongini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institutlardan biridir. Biroq ta'lim jarayonida avtoritar yondashuv, jazoga asoslangan intizom va tanqidiy fikrlashning cheklanishi qo'rquvning institutsional shakllarini yuzaga keltiradi. Yoshlar ongidagi qo'rquvlarni kamaytirish faqat individual psixologik yondashuv bilan cheklanmasligi lozim. Bu masala ijtimoiy-falsafiy darajada hal etilishi kerak. Avvalo, jamiyatda adolat, ochiqlik va ijtimoiy ishonch muhitini yanada shakllantirish muhimdir.

Forobiy ta'kidlaganidek, adolatli jamiyatda inson o'z salohiyatini qo'rqusiz namoyon eta oladi<sup>6</sup>. Shuningdek, milliy tarbiya, tarixiy xotirani sog'lom shakllantirish, ta'limda erkin fikrlashni qo'llab-quvvatlash insonlar ongidagi qo'rquvlarni bartaraf etishning muhim omillari hisoblanadi.

**Xulosa.** Tarixiy nuqtayi nazardan olib qaraganda, insoniyat tafakkuri ortib borgani sari qo'rquvlarning ham turlari, qamrovi kengayib borgan. Hozirgi globallashgan dunyoda qo'rquvning ahamiyati yanada oshib ketdi, endilikda insonlar: siyosatdan, ijtimoiy munosabatlardan, jismoniy tazyiqlardan tashqari turli moliyaviy firibgarlardan tortib, uy zo'rvonligi, odam savdosi, zamonaviy qullikga uchrab qolishdan xavf kabi kattalar xatarlari bilan birga, farzandlarini turli pidofillardan, tabletka va giyohvand moddalarga o'rgatib qo'yuvchi nokas insonlardan asrash kabi qo'rquvlari, muammolari mavjudki, bu hayotiy haqiqatni bugungi kunda hech kim inkor eta olmaydi. Demak, texnologiya asriga kelib qo'rquv va xavf-xatar hissi insoniyatni boshqarayotgan tuyg'ulardan biriga aylandi. Aslida qo'rquvni jamiyatga tasiri mavzusi bu tadqiq etilishi shart bo'lgan, strategik jihatdan o'rganilishi muhim bo'lgan fenomendir. Malum bir tashkilotlar tomonidan jamiyatning ichki qo'zg'alishlari, xavotir va qo'rquvlari, kutuvlari keng qamrovli o'rganilsa bu diagnoz qo'yishda va mavjud muammolarni bartaraf etishda juda muhim omil hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. «Saylanma» Ichingdagi xoin. Shavkat Rahmon(1997) y.
2. O'zbekcha-Ruscha izohli lug'at "O'qituvchi" nashiryoti. Toshkent . 2002 y.
3. Qadimgi dunyo tarixi. Ozbekiston. "Sharq". Toshkent 2006 y.
4. Qadimgi dunyo tarixi. Ozbekiston. "Sharq". Toshkent 2006 y.
5. O'rta asrlar tarixi. "O'qituvchi". Toshkent 2005 y.
6. O'rta asrlar tarixi. "O'qituvchi". Toshkent 2005 y.
7. O'zbekiston sovet mustamlakasi davrida. "Sharq". Toshkent 2006 y.
8. Arastu "Ritorika", "Poetika", "Nikomax etikasi" va boshqa.
9. O'zbek xalq maqollari. Toshkent. 2000 y.
10. Rahmon Qo'chqor. "Tafakkur" jurnali. 2022 yil 2-son. "Ichimizdagi xoin" maqolasi.